HOZIRGI GLOBAL IQTISODIY O‘ZGARISHLAR SHAROITIDA MILLIY IQTISODIYOT BARQARORLIGINI TA’MINLASH YO‘LLARI

Po‘latov Sardorbek Azmiddin o‘g‘li
Geologiya Fanlari Universiteti,
Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya. *Maqolada global iqtisodiy “polykrizis”, ta’minot zanjirlarining uzilishi va geosiyosiy ziddiyatlar sharoitida milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlash yo‘llari tadqiq etilgan. Rossiya–Ukraina mojarosi va Yaqin Sharqdagi beqarorlikning global bozorlarga ta’siri tahlil qilingan. O‘zbekistonning Afg‘oniston bozoridagi eksport salohiyati Eron bilan raqobat kontekstida ko‘rib chiqilib, iqtisodiy diversifikatsiya bo‘yicha amaliy takliflar berilgan.*

Tayanch tushunchalar: *Polykrizis, ta’minot zanjiri, friendshoring, iqtisodiy fragmentatsiya, Hormuz bo‘g‘ozi, eksport salohiyati, energetika xavfsizligi.*

Аннотация. *В статье исследуются пути обеспечения устойчивости национальной экономики в условиях глобального «поликризиса», разрывов цепочек поставок и геополитической напряженности. Анализируется влияние Российско-Украинского конфликта и нестабильности на Ближнем Востоке на мировые рынки. Экспортный потенциал Узбекистана на рынке Афганистана рассматривается в контексте конкуренции с Ираном, даются практические рекомендации по экономической диверсификации.*

Ключевые слова: *Поликризис, цепочка поставок, френдшоринг, экономическая фрагментация, Ормузский пролив, экспортный потенциал, энергетическая безопасность.*

Abstract. *The article examines ways to ensure the stability of the national economy in the face of a global "polycrisis," supply chain disruptions, and geopolitical tensions. The impact of the Russia-Ukraine conflict and instability in the Middle East on global markets is analyzed. Uzbekistan's export potential in the Afghanistan market is discussed in the context of competition with Iran, and practical suggestions for economic diversification are provided.*

Key concepts: *Polycrisis, supply chain, friendshoring, economic fragmentation, Strait of Hormuz, export potential, energy security.*

XXI asrning uchinchi o‘n yilligida dunyo iqtisodiyoti jiddiy o‘zgarishlar bosqichiga kirib bormoqda. So‘nggi yillarda yuzaga kelgan pandemiya oqibatlari, global inflyatsiya bosimi, global savdo muhitida tovar aylanmasiga bo‘lgan tariflar yoki boj siyosatining qo‘llanilish tartibi o‘zgaruvchanligi, energetika bozoridagi beqarorlik hamda geosiyosiy ziddiyatlar natijasida xalqaro iqtisodiy tizimda “polykrizis” deb ataluvchi, ya’ni bir vaqtning o‘zida sodir bo‘ladigan bir nechta global muammolar majmuasidek murakkab holat shakllandi. Bu jarayon global iqtisodiy integratsiya jarayonlarining sekinlashuvi, ayrim hollarda esa fragmentatsiyaga yuz tutishi bilan tavsiflanmoqda.

Zamonaviy global iqtisodiy muhitda milliy iqtisodiyotlarning barqarorligini ta’minlash masalasi dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida ko‘rilmoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlar

uchun tashqi “shok“larga moslashish, iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash va yangi iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanishi strategik muhim ahamiyat kasb etishi kerak.

Mazkur maqolaning maqsadi – global iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlash mexanizmlarini tahlil qilish hamda bu borada amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Shu bilan birga, hozirda dunyo maydonida ro‘y berayotgan geosiyosiy mojarolar davrida yangi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini ko‘rib chiqish ham alohida ilmiy yo‘nalish sifatida o‘rganiladi.

Global iqtisodiy o‘zgarishlarning asosiy ko‘rinishlari

Hozirgi davrda jahon iqtisodiyoti tub transformatsiya bosqichini boshdan kechirmoqda. Ushbu o‘zgarishlar nafaqat an’anaviy iqtisodiy ko‘rsatkichlar dinamikasida, balki ishlab chiqarish texnologiyalari, boshqaruv tizimlari, xalqaro savdo tuzilmasi hamda kapital harakatining yo‘nalishlarida ham chuqur namoyon bo‘lmoqda. Global iqtisodiy tizimning murakkablashuvi va o‘zaro bog‘liqligining ortishi natijasida bir hududda yuzaga kelgan iqtisodiy yoki siyosiy beqarorlik tezkorlik bilan boshqa mamlakatlarga ham tarqalib, global miqyosdagi tizimli xavflarni yuzaga keltirmoqda.

Energetika inqirozi va uning global hamda milliy iqtisodiyotga ta’siri. Ayni damda global iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida energetika inqirozi eng muhim va murakkab tizimli muammolardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Energiya resurslariga bo‘lgan talabning keskin oshishi, taklifning esa geosiyosiy va iqtisodiy omillar ta’sirida cheklanishi natijasida jahon energetika bozorida nomutanosiblik yuzaga kelmoqda. Ushbu nomutanosiblik energiya narxlarining o‘zgaruvchanligini kuchaytirib, global makroiqtisodiy barqarorlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Energetika inqirozining asosiy sabablaridan biri sifatida energiya resurslarining geografik jihatdan notekis taqsimlanganligi va ularga bo‘lgan qaramlik darajasining yuqoriligi ko‘rsatiladi. Xususan, neft va gaz eksportiga bog‘liq hududlarda yuzaga kelayotgan geosiyosiy ziddiyatlar ta’minot zanjirini izdan chiqarib, uning uzilishiga va global narxlarning keskin oshishiga olib kelmoqda. Bu holat, ayniqsa, energiya importiga qaram davlatlar uchun ishlab chiqarish xarajatlarining oshishi va iqtisodiy o‘sish sur’atlarining sekinlashuvi bilan ifodalanadi.

Ta’minot zanjiri uzilishi deganda mahsulot yoki xizmatni ishlab chiqarishdan tortib yakuniy iste’molchiga yetkazib berishgacha bo‘lgan jarayonning istalgan bosqichida yuzaga keladigan to‘siqlar tushuniladi. So‘nggi yillarda bunday uzilishlar ko‘plab omillar — geosiyosiy ziddiyatlar ortidan yuzaga kelgan logistika muammolari, energetika resurslaring taqchilligi transport xarajatlarining oshishini keltirib chiqarishi hamda energetika resurslari narxlarining keskin o‘zgarishi natijasida kuchayib bormoqda. Buning oqibatida eng avvalo, ishlab chiqarish hajmi qisqaradi, chunki korxonalar zarur xomashyo yoki komponentlarni o‘z vaqtida ololmaydi. Bu esa yalpi ichki mahsulot o‘sish sur’atlarining sekinlashuviga olib keladi. Ikkinchidan, mahsulot tanqisligi yuzaga kelib, narxlar oshadi va inflyatsion bosim kuchayadi. Uchinchidan, xalqaro savdo hajmi qisqaradi va eksport-import muvozanati buziladi.

Ta’minot zanjirlari uzilishi mehnat bozoriga ham ta’sir ko‘rsatadi. Ishlab chiqarish hajmining qisqarishi ish o‘rinlarining kamayishiga olib kelishi mumkin, ayniqsa ishlab chiqarishga bog‘liq tarmoqlarda. Shu bilan birga, kompaniyalar ishlab chiqarishni avtomatlashtirishga o‘tishi natijasida mehnat bozorida strukturaviy o‘zgarishlar yuzaga keladi.

Global fragmentatsiya va “friendshoring” jarayonlari. An’anaviy globallashuv modeli erkin savdo, ochiq bozorlar va ishlab chiqarishning maksimal darajada optimallashtirilishiga asoslangan bo‘lsa, hozirgi bosqichda iqtisodiy xavfsizlik, strategik mustaqillik va siyosiy ittifoqlar ustuvor

ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, global iqtisodiyotda yangi yondashuv — “friendshoring” konsepsiyasi shakllanmoqda.

“Friendshoring” deganda ishlab chiqarish va ta’minot zanjirlarini siyosiy jihatdan ishonchli, yaqin hamkor davlatlarga yo‘naltirish tushuniladi. Bu yondashuv iqtisodiy samaradorlikdan ko‘ra barqarorlik va xavfsizlikni ustuvor qo‘yadi. Natijada, kompaniyalar va davlatlar ishlab chiqarishni eng arzon hududlarga emas, balki siyosiy jihatdan barqaror va ishonchli mamlakatlarga ko‘chirishga intilmoqda.

Global fragmentatsiya — bu jahon iqtisodiy tizimining yagona integratsiyalashgan tuzilmasidan asta-sekin ajralib, alohida iqtisodiy, texnologik va siyosiy-iqtisodiy bloklarga bo‘linish jarayonidir. Ushbu jarayon natijasida xalqaro savdo, investitsiya oqimlari, ta’minot zanjirlari va texnologik hamkorliklar erkin global tamoyillardan chekinib, ko‘proq mintaqaviy yoki iqtisodiy ittifoqlarga asoslangan holda shakllanadi. Global fragmentatsiya, asosan, mintaqaviy hamda siyosiy ziddiyatlarning kuchayishi, savdo cheklovlari, sanksiyalar, strategik resurslar ustidan nazorat uchun kurash hamda milliy iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashga intilish natijasida yuzaga keladi. Natijada, global iqtisodiyot yagona bozor sifatida emas, balki o‘zaro raqobatlashuvchi va qisman ajralgan iqtisodiy bloklar tizimi sifatida rivojlanadi.

Yana bir muhim jihat shundaki, global iqtisodiy o‘zgarishlar tobora ko‘proq siyosiy omillar bilan belgilanmoqda. Davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy raqobat, savdo urushlari, sanksiyalar va mintaqaviy mojarolar iqtisodiy muhitni beqarorlashtirib, investitsiya oqimlari va kapital harakatini qayta shakllantirmoqda. Natijada, jahon iqtisodiyoti oldida yangi chaqiriqlar va xavflar yuzaga kelmoqda.

Shu sababli, global iqtisodiy o‘zgarishlarning asosiy ko‘rinishlarini chuqur o‘rganish, ularning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda milliy iqtisodiyotlarga ta’sir mexanizmlarini aniqlash bugungi kun ilmiy tadqiqotlarining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonlarni kompleks yondashuv asosida tahlil qilish orqali davlatlar o‘z iqtisodiy siyosatini samarali shakllantirishi va global beqarorlik sharoitida barqaror rivojlanishni ta’minlashi mumkin.

Global miqyosdagi geosiyosiy ziddiyatlar va ularning milliy iqtisodiyotga ta’siri

So‘nggi yillarda yuzaga kelgan yirik geosiyosiy ziddiyatlar — xususan, 2022-yild 24-fevralda Rossiya–Ukraina o‘rtasida boshlangan harbiy konflikt zamonaviy global iqtisodiyot uchun eng yirik geosiyosiy shoklardan biri sifatida e’tirof etiladi. Ushbu mojaro global energiya, oziq-ovqat va moliyaviy bozorlar orqali ko‘p kanalli ta’sir mexanizmlarini yuzaga keltirdi hamda iqtisodiy o‘sish sur’atlarining pasayishiga olib keldi. Xalqaro Energetika Agentligi (IEA) va Xalqaro valyuta jamg‘armasi (IMF) ma’lumotlariga ko‘ra, 2022-yilda Yevropada tabiiy gaz narxlari ayrim davrlarda 3–5 barobar oshgan.[1] Brent markali neft narxi esa 2022-yil mart oyida 120 AQSh dollaridan oshib, so‘nggi o‘n to‘rt yildagi eng yuqori darajalardan biriga yetgan.[2] Bu holat global ishlab chiqarish xarajatlarining oshishiga va inflyatsion bosimning kuchayishiga olib keldi. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) ma’lumotlariga ko‘ra, 2022-yilda global oziq-ovqat narxlari indeksi tarixiy yuqori darajaga yetgan.[3]

Energiya va oziq-ovqat narxlarining global darajada oshishi O‘zbekistonda ham narxlar o‘sishiga olib keldi. 2022-yilda inflyatsiya darajasi taxminan 12–13% atrofida shakllanib, import

[1] IEA - World Energy Outlook 2022 (Executive Summary)
[2] Reuters: Oil prices soar to 2008 highs
[3] UNCTAD (2022). Impact of the War in Ukraine on Global Trade and Development

qilinadigan mahsulotlar narxining oshishi asosiy omillaridan biri bo‘ldi.[4] Rossiya O‘zbekistonning asosiy strategik hamkorlaridan biri bo‘lib qolmoqda, biroq 2022-yildan boshlab sanksiyalar va logistika muammolari, ayniqsa, avtomobilsozlik, yuqori texnologik uskunalar va butlovchi qismlar savdosi hajmining qisqarishiga sabab bo‘ldi. Shuningdek, Jahon banki o‘z hisobotlarida O‘zbekistonning Rossiya portlariga bog‘liqligini kamaytirish va yangi yo‘nalishlarni rivojlantirish zarurati haqida yozadi.[5]

Global iqtisodiy tizimda Yaqin Sharq mintaqasi strategik ahamiyatga ega hududlardan biri hisoblanadi. Yaqin Sharq dunyo bo‘yicha neft ishlab chiqarishning 29,1 foiziga egalik qiladi.[6] Ushbu mintaqa dunyo neft va gaz zaxiralarining katta qismini o‘zida jamlaganligi sababli, bu yerda yuzaga keladigan har qanday geosiyosiy beqarorlik jahon iqtisodiyotiga bevosita va tezkor salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. So‘nggi yillarda mintaqada kuzatilayotgan qurolli mojarolar, siyosiy qarama-qarshiliklar va harbiy keskinliklar global iqtisodiy muhitni sezilarli darajada murakkablashtirmoqda.

Xususan, Eron bilan bog‘liq geosiyosiy keskinliklar fonida Fors ko‘rfazida joylashgan Hormuz bo‘g‘ozining qisman bloklanishi orqali neft tranzitiga bo‘lgan tahdidlar global energetika xavfsizligini izdan chiqishiga olib keldi. Hormuz bo‘g‘ozi orqali jahon neft hajmining qariyb 20 foizi olib o‘tiladi.[7] Shu sababli, Fors ko‘rfazi mintaqasida yuzaga keladigan har qanday xavf global neft narxlarining keskin oshishiga olib keladi. Osiyo mamlakatlari Hormuz bo‘g‘ozi orqali keladigan neftga juda katta darajada bog‘liq.

[4] O‘zbekistonda 2022-yil yakunlari bo‘yicha inflyatsiya darajasi. Milliy statistika qo‘mitasi Matbuot xizmatining rasmiy kanali. 01.01.2023

[5] Unlocking Uzbekistan’s Potential: The Role of Transport and Logistics

[6] *Charted: Where the World’s Oil Comes From by Region (2025)*

[7] Ho‘rmuz bo‘g‘ozi inqirozi Osiyo aksiya bozorlarini pasaytirdi

1-jadval

Neft import qiluvchi davlatlarning Hormuz bo‘g‘ozidagi ulushi (Talab)[8]

Davlat	Bo‘g‘oz orqali o‘tuvchi jami neftdagi ulushi (%)	Izoh
Xitoy	37.7%	Dunyodagi eng yirik importyor.
Hindiston	14.7%	O‘z ehtiyojining 80-90% qismini import qiladi.
Janubiy Koreya	12.0%	Energetika xavfsizligi butunlay ushbu yo‘lga bog‘liq.
Yaponiya	10.09%	Xom neft ehtiyojining qariyb 95% qismi Fors ko‘rfazidan keladi.
Yevropa Ittifoqi	3.8%	Rossiya neftidan voz kechilgach, bu yo‘lga bog‘liqlik ortgan.
AQSh	2.5%	AQSH asosan o‘z neftiga ega, shuning uchun bog‘liqlik past.

Yaqin Sharqdagi notinchliklar global iqtisodiyotga bir nechta asosiy kanallar orqali ta’sir ko‘rsatadi. **Avvalo**, energetika bozori orqali ta’sir kuzatiladi. Mintaqadagi beqarorlik neft va gaz narxlarining tebranishini kuchaytiradi. Energiya bilan bir qatorda yoqilg‘i narxlarining oshishi esa ishlab chiqarish xarajatlarini ko‘paytirib, global inflyatsiyani yuzaga keltiradi. Yuqorida berilgan jadvaldagi ma’lumotlarga qaraydigan bo‘lsak, Osiyo hamda Yevropa mamlakatlarini turli xil tovarlar bilan ta’minlashda katta ulushga ega davlatlar aynan Fors ko‘rfazi mintaqasi neftiga tayanib qolishgan. Hozirki kundagi bo‘lib turgan mojarolar esa narxlar oshishi ortidan inflyatsiya bosimining kuchayishi milliy iqtisodiyot uchun jiddiy chora-tadbirlar ishlab chiqish kerakligini anglatadi.

Mazkur global iqtisodiy hamda geosiyosiy mojarolar bilvosita O‘zbekiston iqtisodiyotiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Energiya, shuningdek yoqilg‘i narxlarining o‘zgarishi import xarajatlarini oshiradi, bu esa ichki bozorda inflyatsion bosimni kuchaytiradi va shu bilan birga, global savdo sharoitlarining murakkablashuvi eksport imkoniyatlariga ham ta’sir qiladi.

Global iqtisodiy beqarorlik, geosiyosiy ziddiyatlar va texnologik transformatsiya sharoitida O‘zbekiston iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish masalasi strategik ahamiyat kasb etmoqda. So‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar mamlakat iqtisodiyotining tashqi shoklarga chidamliligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, ularning asosiy yo‘nalishlari diversifikatsiya, raqamlashtirish, eksportni kengaytirish va institutsional islohotlardan iborat.

O‘zbekiston iqtisodiy siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri xomashyo eksportiga bog‘liqlikni kamaytirish va yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishdan iborat. “Bozor xo‘jaligi sharoitida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish

[8] *Charted: Oil Trade Through the Strait of Hormuz*

qonunchilik, ijro etish va nazorat qilish xususiyatidagi tadbirlar tizimidan iborat bo‘ladi. Hozirgi sharoitda iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish takror ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bir qator vazifalarni hal qilishga qaratiladi. Bular jumlasiga iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, bandlikni tartibga solish, tarmoq va mintaqaviy tuzilmalardagi ijobiy siljishlarni qo‘llab-quvvatlash, eksportni himoya qilish kabilarni kiritish mumkin”.[9]

Xalqaro miqyosda kechayotgan mazkur jarayonlar fonida har bir davlat o‘zining nisbiy ustunliklarini aniqlab, global bozorga qanday resurslar bilan chiqishi mumkinligini belgilashi zarur. O‘zbekiston uchun ham bu masala strategik ahamiyatga ega bo‘lib, mamlakatning tabiiy, iqtisodiy va demografik salohiyatidan samarali foydalanish orqali global iqtisodiyotda munosib o‘rin egallash imkoniyati mavjud. Misol tariqasida qo‘shni Avg‘oniston bozorini tahlil qilish orqali O‘zbekistonning imkoniyatlarini quyida ko‘rib chiqamiz.

Afg‘oniston iqtisodiyoti deyarli barcha hayotiy muhim tovarlar bo‘yicha importga qaram hisoblanadi. Jahon banki (World Bank) ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakat ichki iste’molining 80% dan ortig‘i xorijiy yetkazib beruvchilar hisobidan qoplanadi.[10] 2025-yil holatiga ko‘ra, Afg‘oniston aholisi 43 milliondan oshdi.[11] Aholining o‘rtacha yoshi 18.4 ni tashkil etishi iste’mol bozorining uzoq muddatli o‘sish salohiyatini ko‘rsatadi. Mamlakatning yillik import hajmi o‘rtacha $9 mlrd dan $10 mlrd gacha tebranmoqda.[12]

UN Comtrade (BMT Xalqaro savdo statistikasi bazasi) ma’lumotlariga ko‘ra, Afg‘oniston importining asosiy qismini quyidagilar tashkil etadi:[13]

Energiya resurslari (25-30%): Neft mahsulotlari, suyultirilgan gaz va elektr energiyasi; Oziq-ovqat mahsulotlari (20-25%): Un, bug‘doy, o‘simlik yog‘i, shakar; Qurilish materiallari (15%): Sement, metall prokat, oyna; Tekstil va kiyim-kechak (8-12%): Paxta matolari, sintetik tolalar, tayyor kiyim-kechak va poyabzal.

Ma’lumot o‘rnida Eron uzoq yillar davomida Afg‘onistonning birinchi raqamli savdo hamkori bo‘lib kelgan va shuningdek, importyor davlatlar orasida ham Eron Avg‘oniston uchun yetakchi mamlakat hisoblanadi. Xususan, Jahon banki rasmiy saytining 2025-yil Dekabr oyidagi hisobotida Avg‘onistonga tovar eksport qiluvchi davlatlar orasida birinchi o‘rinda Eron — eng katta ulushdor (30.3%) sifatida ko‘rsatilgan bo‘lsa, O‘zbekiston esa bu borada yetti foizlik ulush bilan oltinchi o‘rinda keltirilgan.[14] Biroq, so‘nggi paytlardagi AQSh-Isroil koalitsiyasi va Eron o‘rtasida yuz berayotgan ziddiyatli to‘qnashuvlar har ikki tarafning iqtisodiy “holsizlanish”iga olib kelishi natijasida ularning eksport salohiyatiga ham jiddiy putur yetishi ehtimoldan holi emas. Bu esa Eron tovar-mahsulotlariga qaramligi yuqori bo‘lgan Avg‘oniston bozorida taqchillik yuzaga kelishi mumkinligini anglatadi. Ushbu taqchillikni to‘ldirish uchun O‘zbekiston eng muqobil variant sifatida ko‘zga tashlanadi. Nima uchun?

O‘zbekiston Afg‘oniston bozorida Eron o‘rnini egallashi mumkin bo‘lgan bir qancha strategik yo‘nalishlarga ega:

---

[9] U.V.G‘afurov, M.Sh.Xalilov, Sh.Baymuradov. Davlat iqtisodiyoti va siyosati. O‘quv qo‘llnma. — T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021 — 224b.

[10] World Bank - Afghanistan Overview Afghanistan Economic Monitor.

[11] Afghanistan Population 2025 - United Nations Population Fund

[12] World Bank: Afghanistan Economic Monitor. December 2025

[13] UN Comtrade Database - Afghanistan

[14] World Bank: Afghanistan Economic Monitor. Imports.December 2025

Elektr energiyasi: O‘zbekiston Afg‘onistonning shimoliy hududlarini elektr energiyasi bilan ta’minlovchi asosiy subyektdir. “Surxon – Puli-Xumri” (500 kV) liniyasining ishga tushishi Afg‘onistonga elektr eksportini yiliga 6 milliard kVt/soatga yetkazish imkonini beradi. Bu Eronning g‘arbiy provinsiyalarga beradigan energiyasidan ko‘ra barqarorroq va arzonroqdir;[15]

Oziq-ovqat sanoati: Afg‘oniston oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha importga o‘ta qaram. O‘zbekiston esa ushbu ehtiyojni quyidagi mahsulotlar bilan qoplashi mumkin: O‘simlik yog‘i: Eronning ichki bozoridagi inflyatsiya fonida O‘zbekistonning paxta va kungaboqar yog‘i eksporti raqobatbardoshligini oshirgan; Meva va sabzavotlar: Muzlatilgan va qayta ishlangan meva-sabzavot konservalari Afg‘oniston bozorida yuqori talabga ega; Un va g‘alla: Afg‘oniston yiliga 3,5 million tonnadan ortiq un import qiladi. O‘zbekistonning mahsulotlari logistik jihatdan Pokistondan keladigan unga qaraganda sifatliroq va Erondan keladigan mahsulotdan arzonroqdir;[16]

Qurilish materiallari: Afg‘onistondagi infratuzilmaviy loyihalar va aholi punktlarini qayta tiklash jarayoni qurilish materiallariga bo‘lgan talabni keskin oshirgan. O‘zbekiston sement ishlab chiqarish quvvati yiliga 26-27 million tonnaga yetdi.[17] Afg‘oniston uchun Termiz orqali sement import qilish logistik xarajatlarni 20-25% gacha tejashi mumkin. Undan tashqari O‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan armatura va qurilish oynalari Eron va Xitoy mahsulotlari bilan sifat borasida raqobatlasha oladi;

Sanoat va mashinasozlik mahsulotlari: O‘zbekiston Afg‘oniston bozoriga tayyor sanoat mahsulotlarini yetkazib berish bo‘yicha mintaqaviy lider bo‘la oladi. Jumladan mashinasozlik (avtomobilsozlik), maishiy texnika, to‘qimachilik, kimyo sanoati (mineral o‘g‘itlar, farmatsevtika mahsulotlari) ishlab chiqarish bo‘yicha Markaziy Osiyoda yetakchi sanoatlashgan mamlakat deb bemalol O‘zbekistonni aytishimiz mumkin. Mineral o‘g‘itlar (karbamid, ammiakli selitra) Afg‘oniston qishloq xo‘jaligi uchun muhimdir. “O‘zkimyosanoat” korxonasi mahsulotlari esa ushbu yo‘nalishda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin.

O‘zbekiston mahsulotlari Avg‘oniston bozori uchun Eron tovarlarining o‘rin bosuvchisi sifatida kira olish qobiliyatiga ega. Xususan, Eron eksport qilgan 70% mahsulot turlari O‘zbekistonda yetishtiriladigan mahsulotlariga mos kela oladi (oziq-ovqat, qurilish, energiya). Shuningdek, O‘zbekistonning Avg‘oniston bilan bevosita bo‘lgan temir yo‘l aloqasi va siyosiy betarafligi savdo hajmini oshirishda yanada katta imkoniyat faktori bo‘lib xizmat qiladi.

[15] O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan Afg‘oniston Islom Respublikasi hukumati o‘rtasida bitim. 21.02.2018. "Surxon - Puli-Xumri" elektr yetkazib berish loyihasi ishga tushirilmoqda. KUN.UZ 15.09.2025

[16] O‘zbekistonning Afg‘onistondagi iqtisodiy loyihalari va mamlakatlar o‘rtasidagi savdo ko‘rsatkichlari. Gazeta.Uz

[17] «O‘zsanoatqurilishmateriallari» uyushmasi 27.04.2023

XULOSA

Hozirgi davrda global iqtisodiyot murakkab va ko‘p qirrali transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Geosiyosiy ziddiyatlar, shuningdek yirik davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy raqobat global savdo tizimini izdan chiqarib, resurslar taqchilligi, energetika inqirozi hamda ta’minot zanjirlarining uzilishiga olib keldi. Bunday sharoitda iqtisodiy barqarorlik masalasi davlatlar uchun nafaqat iqtisodiy, balki strategik xavfsizlik masalasiga aylanmoqda.

Ushbu maqolada “Hozirgi global iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlash yo‘llari” mavzusi doirasida global iqtisodiy o‘zgarishlar ortidan kelib chiqadigan bir nechta muammolar mohiyati hamda ahamiyati va bu murakkab jarayonlar fonida milliy iqtisodiyotni barqaror ushlash maqsadida yangi imkoniyatlarni ko‘rib chiqgan holda tahlil namunalari keltirildi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy sharoitda milliy iqtisodiyot barqarorligi an’anaviy omillar bilan cheklanib qolmay, balki yangi global tendensiyalar — raqamli iqtisodiyot, sun’iy intellekt, iqtisodiy fragmentatsiya va “friendshoring” kabi jarayonlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Global iqtisodiy tizimning parchalanishi ishlab chiqarish va savdo zanjirlarining mintaqaviylashuviga olib kelmoqda, bu esa davlatning tashqi iqtisodiy siyosatida moslashuvchan va strategik yondashuvchanlikni talab qiladi.

Umuman olganda, global iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlash ichki va tashqi omillarning uyg‘unlashuvini talab etadi. Diversifikatsiya, raqamli transformatsiya, energetika xavfsizligi, logistika tizimining rivojlanishi va inson kapitaliga investitsiyalarni oshirish orqali iqtisodiy tizimning tashqi shoklarga nisbatan chidamliligini ta’minlash mumkin. Aynan shu kompleks yondashuv mamlakatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishi va global iqtisodiy tizimda munosib o‘rin egallashining asosiy sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. .V.G‘afurov, M.Sh.Xalilov, Sh.Baymuradov. Davlat iqtisodiyoti va siyosati. O‘quv qo‘llnma. — T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021. — 224b.
2. Makroiqtisodiy siyosat. Darslik. Asqarova M.T., Zaxidov G‘.E., Amirov L.F. — T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2019. – 302 bet.
3. Vahabov A.V.. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik. A.V. Vaxabov, D.A. Tadjibayeva, Sh.X. Xajibakiyev. — Toshkent: Baktria press, 2015. — 584 bet.
4. Ishmuhamedov A.E., Raximova M.R. Mintaqaviy iqtisodiyot: Darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2010. – 234 b.
5. Abdurazakova N. Jahon moliyaviy bozorlar barqarorligiga global iqtisodiy inqirozlar va geosiyosiy omillarning ta’siri hamda ularni boshqarish strategiyalari.
6. Jurayev R.R. Global inflyatsiya bosimi va uning rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiy va moliyaviy barqarorligiga ta’siri.
7. “Economic impact of the 2026 Iran war”, Wikipedia.